

O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA MATNLARNING O'RNI

Avezbayeva Jamila

*Qoraqalpoq davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti*

ARTICLE INFO.

Annotation

Kalit so'zlar:

*Matn, tovush birliklari, muloqot,
nutqiy faoliyat*

Ushbu maqolada o'zbek tili (davlat tili) ni yaxshi o'zlashtirishda va og'zaki nutqini rivojlanterishda ko'proq matnlar ustida ishlash metodlari, o'quvchilardan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rniда to'g'ri qo'llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodalni, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar sosida xulosalar chiqarishni borasida keng turda bayon qilingan..

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Bugungi kunda ta'limgiz tizimida tilni zamon talablari asosida mustaqil o'zlashtirish usullarini tatbiq etishga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi «Ta'limgiz to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'limgiz tarbiya tizimi bilan bog'liq barcha mutaxassislar oldiga qo'ygan ulkan va mas'uliyatli vazifalarni ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagina hal etish mumkinligi hammamizga ayon. Shu maqsadda talabalarning, o'quvchi yoshlarning tillarni o'zlashtirishiga alohida e'tibor berilishi bejiz emas, albatta ...

Ma'lumki, O'zbekistonda juda ko'p millat vakillari yashaydi va ta'limgiz ham turli tillarda olib boriladi. Ta'limgiz boshqa tilda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishdan kutiladigan pirovard natija esa o'quvchilarni sof o'zbek tilida muloqot qila olishga o'rgatishdir. Shu bo'sham zamonaviy sharoitda muvafaqqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun oliy malakali mutaxassis, talaba, o'quvchilar bir necha tilni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi, o'z ona tilidan tashqari o'zbek tili (davlat tili) ni ham yaxshi bilishi talab etiladi.

Olimlarning tadqiqot o'tkazish natijalariga ko'ra, insonlar o'qigan narsalarining 10 foizini, eshitganlarining 20 foizini, ko'rganlarining 30 foizini, ham ko'rib, ham eshitganlarining 50 foizini, o'z nutqiy faoliyatlarida qo'llaganlarining esa 90 foizini xotiralarid a saqlab qolar ekanlar¹.

¹ Тил ва адабиёт таълими №6, 2005. Т.: , 73-бет.

Demak, til o‘rganuvchi kishi bior so‘zni ko‘rib, eshitib va o‘z nutqiy faoliyatida qo‘llab ko‘rsa, uni xotirada saqlash va o‘zlashtirish imkoniyati yuqori bo‘ladi. Bunday natijalarga erishishda ta’lim tizimida yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi.

Jamiyatimizdagи bo‘layotgan katta o‘zgarishlar o‘qitish metodikasiga nazariy va amaliy jihatdan o‘zgarishlar kiritib, davr talabiga mos darsni tashkil qilishni talab etmoqda. Jumladan, hozirgi kunda til ta’limi oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri-o‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqini takomillashtir ish, ularda fikr yuritish, o‘z fikrini mantiqan izchil va savodli qilib ifodalash ko‘nikmalarini hosil kilishd ir. Bunda mashqlarning o‘rni alohida. Ayniqsa, mashq jarayonini matnlar ustida ish olib borishi maqsadga muvofiqdir.

Maktabda tilning fonetikasini o‘rganmasdan uning grammatiskasini o‘rganish mumkin emas. O‘zbek tilining nutq tovushlarini va uning grafikasini yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchigina o‘zbek tilida tovushlar ini to‘g‘ri farqlay oladi, to‘g‘ri yoza oladi, natijada birinchi navbatda bolada o‘zbek tilida gapirish ko‘nikmalari shakllana boradi. Fonetika va grafikani puxta o‘zlashtirgan o‘quvchigina leksikani yetarli darajada o‘zlashtiradi. Shuning uchun til hodisalarini o‘zaro uzviy aloqadorlikda o‘rgatish “O‘zbek tili” o‘quv fanini o‘qitishning samaradorligini ta’minlovchi muhim vosita sanaladi.

Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitishdan ko‘zlangan eng asos iy maqsadlardan yana biri o‘z fikrini og‘zaki va yozma shakkarda bayon qilishga o‘rgatish ekan, bu ishni matn ustida ishlamay turib amalga oshirib bo‘lmaydi. Ular gap va matnni o‘zaro qiyoslab farqini aniqlash, matnning o‘ziga xos xususiyatlari ustida ishlash, matn mazmuni haqida umumlashma hosil qilish, matnni qismlarga ajratish, matnga sarlavha topish, fikrning kim yoki nima haqida borayotganligini aniqlash orqali matn ustida ishlashga o‘rgatiladi.

Ma’lumki, fikrni og‘zaki va yozma ravishda bayon qilish, birinchi navbatda ularning so‘z zahiras iga bog‘liq. Bu zaruriy malakalarining rivojlanganlik darajasi uyadosh so‘zlar qatorini davom ettirish, berilgan o‘zbekcha so‘zlarni muayyan uyalarga ajratish, ma’nodosh so‘zlar topish singari o‘quv topshiriqlarigina bu tamoyilni tadbiq etishning eng samarali va qulay vositasi sanaladi. Shuningdek, o‘zbek tili o‘qituvchisi dars samaradorligiga erishish uchun bilingvistik sharoitni hisobga olishi, har ikki tilda so‘zlearning talaffuzi, imlosi, ma’nosи va qo‘llanishini hisobga olishi lozim.

Har bir o‘zbek tili mashg‘ulotining bosh maqsadi-nutqiy ko‘nikma hosil qilish uchun tavsiya qilinga n nutqiy mavzu talabini bajarishga qaratiladi, barcha tadbirlar shunga xizmat qiluvchi didaktik omillard ir. Zero, «Til ta’limining zamonaliv usullarida, xususan, xorijiy tillarni o‘qitishda, jumladan, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda ham samarali qo‘lanilib kelayotgan metodik tizimlarda nutq vaziyatlari va nutqiy mavzulardan keng foydalanish ko‘zda tutiladi. Bu vositalar yangi nutqiy mavzuni o‘rgatish bosqichidan tortib, to nutqni takomillashtirish bosqichiga qadar amalga oshiriladigan barcha metodik tadbirlar va mashqlarga asos qilib olinadi»². Masalan, mashq ichida 10-15ta maqol va hikmatli so‘zlar beriladi va uni ko‘chirib yozish topshiriladi. O‘zlariga ma’qul bo‘lganlaridan ikkitasiga sharh yozadi. Yoinki rasmlar asosida kichik matnlar yaratish ham o‘quvchi yoshlarning so‘z boyligini oshirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda dars samaradorligini oshirishda ijodiy-amaliy topshiriqlar o‘rni alohida. Faqat uni dars mobaynida o‘rinli qo‘llash kifoya. Bu esa o‘qituvchidan izlanuvchanlik va mahorat talab qiladi.

² А.Ф.Мухиддинов. Ўкув жараённида нутқ фаолияти. Тошкент, «Ўқитувчи», 1995 йил, 37-бет

Adabiyotlar

1. A.G'ulomov. M.Qodirov. Ona tilini o‘qitish metodikasi. Toshkent., Universitet. 2001.
2. A.G'ulomov va boshqalar. O‘zbek tili (2-9-sinflar uchun dastur) «Ustoz» gazetasi 2000 yil, 34-42-sonlar
3. S.Nazarova. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. (Ta’lim boshqa tilda olib boriladigan guruhlar uchun.) Toshkent., «O‘qituvchi» 1992 yil.
4. G’ulomov A. Ona tili o‘qitish tamoyillari va metodlari. Toshkent. «O‘qituvchi», 1998 yil.